



“AVTOMOBIL YO‘LLARINI JIHOZLASH” FANIDAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH

Amanova Nozima Shavkatovna

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti Assistent

99 888-700-73-97

amanovanozima@tdmau.uz

Annotatsiya Ayni vaqtda oliy ta’lim muassasalari yetuk barkamol kadr tayyorlash maqsadida ta’lim texnologiyalaridan muvaffaqiyatli foydalanmoqdalar. So’nggi yillarda mazkur texnologiyalar ta’lim tizimiga ham katta samara bermoqda. Uning yordamida talabalarning bilim, ko’nikma va malakalari darajasi har tomonlama holisona baholanmoqda.

Kalit so‘zlar ta’lim texnologiyalar, ta’lim, soha, avtomobil yo‘li, obodonlashtirish, jihozlash, yo‘l belgilari, ko‘kalamzorlashtirish.

KIRISH


Bugungi kunda ta’lim tizimini yaxshilashda, ta’lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko’tarishda ta’lim texnologiyalarining o‘rni beqiyos[1]. O‘zbekiston mustaqil milliy demokratik davlat sifatida rivojlanish yo‘lini tanlaganidan so‘ng, dastlabki yillardayoq, yurt oldiga yuksak madaniyat va ma’naviyatga hamda jahon andozalari darajasidagi ta’lim va tarbiyaga erishish vazifalari qo‘yildi. Bu vazifalar ma’lumki, bosqima-bosqich islohotlar yo‘li bilan amalga oshirilmoqda. Islohotlar taqdirida yuqori malakali mutaxassislarning hal qiluvchi rolini inobatga olgan holda, endilikda xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalar asosida yetuk mutaxassislar tayyorlash tizimi ishlab chiqildi [2].

“Assesment” inglizcha “assessment” so‘zidan olingan bo‘lib, “baho”, “baholash” ma’nolarini bildiradi. Assesment metodi talabalarning bilim, ko’nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta’minlovchi topshiriqlar to‘plami bo‘lib, u biografik anketa, ta’lim sohasidagi yutuqlar bayoni, o‘quv individual topshirig‘i, bahs-munozara, intervyu, ijodiy ish, test, individul keys, taqdimot, ekspert kuzatishi, rolli hamda ishbilarmonlik o‘yinlari kabilardan tashkil topadi [3]. Bu metod asosan quyidagi uch maqsadga xizmat qiladi:


- talabalarning bilim, ko’nikma va malakalarini har tomonlama, xolis baholash;
- talabalarning bilim, ko’nikma va malakalarini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash;
- talabalarning bilim, ko’nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan istiqbol reja (maqsadli dastur) ni shakllantirish.



Yo'l belgilari avtomobil yo'lining butun bo'laklarida va aholi yashaydigan joylarida yo'l sharoitidan kelib chiqib qo'llaniladi [4,5,6]. (1-rasm)




1-rasm. Yo'l belgilarini o'rnatish




2-rasm. Avtomobil yo'lini ko'kalamzorlashtirish va yo'l belgilarini o'rnatish jarayoni

Bufer mintaqasi yoritish ustunlari, yo'l belgilari va ko'rsatkichlari, velosipedlar to'xtash joyi va ko'cha mebellarini joylashtirish uchun mo'ljallangan. Bu mintaqada shuningdek, ko'kalamzorlashtirish elementlari maysazorlar mavjud bo'lib, daraxt va butalarni ekish uchun imkon beradi. Ko'cha jihozlarini joylashtirish uchun maydonning minimal kengligi 1 m olinadi. Obodonlashtirish chizig'ining kengligi piyodalar yo'lining umumiy kengligiga qarab belgilanadi. Ko'pincha piyodalar mintaqasini obodonlashtirish uchun turli xil maysazorlar va gulzorlardan foydalaniladi. Barqaror maysazorlarni yaratish uchun ko'p yillik o'tlardan foydalaniladi, ular ekishdan keyin 2-3 yil ichida zich maysazor qoplamasini hosil qiladi. Chunki piyodalar mintaqasiga joylashtirilgan yashil maydonlarning turlari hududning kengligiga bog'liq (3-4-rasmlar). Ularni quyidagi turlarga bo'lish mumkin.

Oddiy ko'chatlarni tashkil qilishda daraxtlar piyodalar yo'lagi bo'ylab, shuningdek piyodalar mintaqasining perimetri bo'ylab bir qatorga ekilgan.



3-rasm. Daraxt ekish usullari



4-rasm. Piyodalar yo'lakchasi mintaqalari

“Assesment” metodi bo'yicha topshiriq namunasini ko'rishingiz mumkin. Ushbu namuna bo'yicha talabalarga “Avtomobil yo'llarini obodonlashtirish va jihozlash” fanidan topshiriq kartochkalari tarqatiladi.

“Assesment” metodi bo'yicha topshiriq namunasi

Test. Tegishli fan bo'yicha o'tilgan (bo'lim, kurs) yuzasidan 1- 2 ta test beriladi.	Muammoli vaziyat. O'tilgan mavzu asosida aniq hayotiy vaziyat, hodisaga asoslangan muammo beriladi.
--	---

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bugungi kunda ta'lim texnologiyalari bilan dars jarayonlarini olib borish maqsadga muvofiq yetarlicha samara bermoqda. Ta'lim



texnologiyasi bu texnologiyani ta'limga ijobiy tarzda integratsiyalash jarayoni bo'lib, u yanada xilma-xil ta'lim muhitini va o'quvchilarning texnologiyadan foydalanishni, shuningdek, umumiy topshiriqlarini o'rganish usulini ta'minlaydi.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning vazifalaridan kelib chiqqan holda, Kadrlar takomillashtirish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash ta'limga texnologik yondashuvni talab etadi. Bunda bevosita ta'lim jarayonini, oliy ta'limning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, ilmiy-ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. TEXNIK FANLARNI O'QITISHDA PEDAGOGIK
TEKNOLOGIYALARNING O'RNI N.Amanova Sh.Turdiyev (maqola)
"FARG'ONA VODIYSIDA XAVFSIZ HARAKATLANISHNI TA'MINLASH:
MUAMMO VA YECHIMLAR" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI TO'PLAMI 2024

2. Azizov Q.X. "Yo'l harakatini tashkil etish asoslari". T. "Fan va texnologiyalar"
2009-244 b

3. ShNQ 2.05.02-2007. "Avtomobil yo'llari. Toshkent 2007

4. MSHN 33-08 "Avtomobil yo'llarini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish
bo'yicha yo'riqnoma" T. 2008.

5. METHODS OF USING EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN
TEACHING ENGINEERING SUBJECTS Amanova Nozima Shavkatovna
Assistant, Termez State University of Engineering and Agrotechnology
amonovanozima1997@gmail.com 2025.

6. AVTOMOBIL YO'LLARINI ARXITEKTURA BADIY BEZASH
TEKNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH N.Sh.Amanova- SCHOLAR,
2025https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=G_RJyasgAAAAJ&citation_for_view=GRJyasgAAAAJ:d1gkVwhDpl0C